

“Ta’lim tizimidagi islohotlar jarayonida Abdurauf Fitratning pedagogik merosi: tarixiy va zamonaviy tahlil.”

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

1-bosqich talabasi Sanoyeva Ferangiz Yoshi qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshlarining ma’rifatparvar ziyolisi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Abdurauf Fitratning pedagogik merosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Asosiy e’tibor Fitratning ta’lim tizimidagi tanqidiy qarashlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ilgari surishdagi tashabbuslari hamda bu g’oyalarning amaliy ahamiyatiga qaratilgan. Fitratning ta’limda ona tili, tarix, tabiiy fanlar va axloqiy tarbiyani asosiy yo’nalish sifatida belgilagani, an’anaviy ta’lim shakllarini isloh qilish va o’quv dasturlarini zamonaviylashtirish borasidagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, uning pedagogik qarashlarining jadid maktablariga ta’siri va ularning bugungi ta’lim islohotlari bilan uzviy bog’liqligi ochib beriladi. Fitrat merosi milliy va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi uchun muhim nazariy asos sifatida baholanadi.

Abstract

This article provides a scholarly analysis of the pedagogical legacy of Abdurauf Fitrat, a prominent intellectual and leading figure of the early 20th-century Jadid movement. The focus is on his critical views of the traditional education system, his proposals for modern pedagogical approaches, and their practical significance. Fitrat emphasized the central role of native language, history, natural sciences, and moral education in the learning process. His efforts to reform traditional teaching methods, modernize curricula, and promote student-centered thinking are examined in detail. The article also explores the influence of Fitrat’s pedagogical ideas on Jadid schools and their relevance to current educational reforms. His legacy is evaluated as an important theoretical foundation for integrating national and modern approaches in contemporary education.

Kalit soʻzlar:

Abdurauf Fitrat, pedagogik meros, jadidchilik, ta’lim islohoti, zamonaviy ta’lim, tarixiy tahlil, o’quv dasturi, o’qituvchi tayyorlash, milliy uyg’onish, ma’rifatparvarlik, Turkiston maktablari, pedagogik yondashuvlar.



Keywords:

Abdurauf Fitrat, pedagogical legacy, Jadidism, educational reform, modern education, historical analysis, curriculum development, teacher training, national awakening, enlightenment movement, Turkestan schools, pedagogical approaches.

1. Turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek yozuvini lotinlashtirish g‘oyasi birinchi marta 1921 yil yanvarda Toshkentda o‘tkazilgan O‘zbek tili va uning imlosiga bag‘ishlangan qurultoyda o‘rtaga tashlangan bo‘lsa ham dastlab ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi¹. Qurultoyda bu haqda maxsus ma‘ruza qilgan Abdurauf Fitrat o‘z so‘zida arab grafikasini bosmalash va qo‘llash ishida bir qator qiyinchiliklar borligini ko‘rsatib o‘tish bilan birga uni soddalashtirish zarurligini taklif qilgan holda arab grafikasini saqlab qolish zarurligini ta‘kidlaydi. Bu paytda Turkistonda arab imlosidagi o‘zbek yozuvi 2 marta isloh qilingan. Fitrat oradan ko‘p o‘tmay o‘zbek yozuvini lotinlashtirish g‘oyasining tarafdori bo‘ldi. Bu yo‘lda u o‘zining safdoshlari bilan tinimsiz kurash olib borib, lotin imlosi tarafdoflarining arab imlosi tarafdorlari ustidagi g‘olib chiqishida muhim rol o‘ynadi. Turkiston ASSRda 1922 yilning oxiriga kelib imloni o‘zgartirish masalasida muzokaralar yanada kuchaydi. Maorif va madaniyat xodimlarining qurultoyida bu masalada juda keskin tortishuvlar bo‘ldi. Bu qurultoyda asosiy ma‘ruzachi bo‘lgan turkiy tillar bilimdoni professor Ye.D.Polivanov O‘rta Osiyo xalqlari uchun arab imlosidan voz kechish og‘ir ekanligini aytsa-da u arab imlosini o‘zgartirish tarafdori bo‘ldi². Keskin munozara va bahslardan so‘ng Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi huzuridagi Davlat Ilmiy kengashi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan arab imlosini yengillashtirish va isloh qilish tarafdorlari g‘alaba qildilar. Qurultoyda bu haqda 6ta moddadan iborat qaror qabul qilindi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta‘lim, umumiy ta‘lim, o‘rta maxsus

¹ 2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир: М. Жўраев. –Тошкент: “Шарқ”, 2000. –Б. 391

² 3. Поливанов Е.Д. О принципах построения тюркской грамматики (Тезисы доклада на заседании педагогической комиссии Научного Совета // «Наука и просвещение», 1922. № 1. –С. 12.



kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiypedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini, kichik bir vakili bo'lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Oilaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi ajdodlarimizdan bizga o'tgan bilim va tajriba, madaniy qadriyatlar asosida va zamondoshlarimiz erishgan yutuqlari negizida barpo bo'ladi. Oila masalasi, uning jamiyat hayotidagi o'rni qadimdan faylasuflar, adiblar va boshqa olimlarni qiziqtirib kelgan.

Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi jadid namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriylarning qator maqola va asarlarida atroflicha tahlil etildi. M.Behbudiyning “Sag'irlar haqinda”, “Xifzi sihati oila” (“Oila sog'ligining himoyasi”), Abdusalom Azimiyning “Ta'lim va tarbiya”, Ibratning “Millatni kim isloh etar?”, A.Fitratning “Buxoro hukumatining islokorona qadamlari”, Mirmuhsinning “Ahvoli zorimiz” kabi “Oyna” jurnalida chop etilgan maqolalari oila tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko'tarib chiqqanini ta'kidlash zarur³. Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari, milliy o'zlikni anglash haqidagi g'oyalari insonni keng mushohadaga chorlaydi. Ayniqsa, Abdurauf Fitratning 1914 yilda Buxoroda yozilib, 1915 yilda chop etilgan “Oila” kitobida muallif oila to'g'risidagi o'z bilimlarini Sharq va G'arb olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlari bilan tanishib chiqish jarayonida mustahkamlab, nihoyat oila masalasida o'sha davr uchun shunday mukammal yo'riqnomani dunyoga keltirdi. Asarning nashiri Mirzo Abduvohid Munzim bo'lgan. O'sha davrdayoq asar Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda keng tarqalgan va jamoatchilikning diqqat e'tiborini tortgan. Kitob faqatgina oila masalalari yortilgan falsafiy, axloqiy va ma'naviy manba bo'lib emas, balki o'zida aks etgan tarixiy ma'lumotlari bilan ham qimmatlidir. Turkistonning chuqur inqirozga yuz tutganligini, Rossiyaga qaram bo'lgan Buxoro amirligi va uning ayanchli ahvoli, umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolib ketganligini, iqtisodiyot, ma'naviy hayotdagi qoloqliklar muallif tomonidan oila masalalarini

³ 4. Абдурауф Фитрат. “Оила”. -Тошкент, 2000. - Б.6-7.



keltirish orqali yoritiladi. Tarixan shakllanib kelgan oila tarbiya jarayonida kattalarni xurmat kilish, uzaro yordamlashish, kelajak avlod xakida gamxurlik qilish kabi tarbiyaning qat'iy qoidalari bulib kelgan. Bu borada buyuk mutafakkirlarimiz uzoq vaqt izlanish va tajribalar olib borganlar. Asosan, X asr donishmandi Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-ona shugillanmogi lozim, deb uktirgandi. Chunki oilada olingan tarbiya farzandning qalbi va ongiga singib, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi⁴.

2. Abdurauf Fitrat o'z davrining eng muhim adiblaridan biri sifatida tanilgan. U nafaqat shoir, balki olim, nosir, dramaturg, ma'rifatparvar sifatida ham o'zini ko'rsatgan. Fitrat 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida dunyoga keldi va u yerda ko'plab ilmiy va ma'rifiy ta'limotlarni o'zlashtirdi. Buxoro, Istanbul madrasalari vadorilfununlarida tahsil olib, arab, fors va turk tillarini mukammal egalladi. Fitratning ijodi Turkistonda inqilobiy harakatlar kuchaygan davrga to'g'ri keldi. U jadid usulidagi maktablarning rivojiga hissa qo'shdi va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi. Fitrat o'zining Turkiston maorifini rivojlantirish va uni millat ehtiyojiga xizmat qilishi uchun bir qator muhim yo'nalishlarda faoliyat olib borgan. Bu yo'nalishlar quyidagilar: 1. Ma'rifatni targ'ib etish: Fitrat o'z asarlarida ma'rifatni yayish va xalqni ma'rifatga chorlashga alohida e'tibor bergan. U xalq orasida bilim olish va ta'limga bo'lgan ehtiyojni oshirishga intilgan. 2. Yangi usul maktablar tashkil etish: Fitrat yangi usuldagi maktablarni tashkil etdi, ularda zamonaviy ta'lim-tarbiya berishda ishtirok etdi va darsliklar yozdi. Bu maktablar orqali o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni yetkazishga harakat qildi. 3. Matbuot faoliyati: Gazeta va jurnallar chiqarish orqali Fitrat ma'rifat tarqatishga, xalqni yangiliklardan xabardor qilishga harakat qildi. Matbuot sohasidagi faoliyati orqali u keng jamoatchilikka ta'sir ko'rsatdi. 4. Teatr truppalari tashkil etish: Ma'rifat va madaniyatni tarqatishda teatr san'atidan foydalanishni afzal ko'rdi. U teatr truppalarni tashkil etdi va ularga dramalar yozdi, bu esa san'at orqali ma'rifatni targ'ib qilish imkonini berdi. 5. Ta'lim olish uchun chet ellarga talabalar yuborish: Fitrat mahalliy mutaxassislarni tayyorlash maqsadida chet ellarga talabalarni yubordi, bu orqali o'z xalqiga kerakli bilimlarni olib kelishga intildi. 6.

4

<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/download/9533/8704/9565&ved=2ahUKEwjsov3theSNAXUZLBAIHdt3FT8QFnoECCEQAQ&sqi=2&usg=AOvVaw31QCvoziuTM9we7fqLfJd5>



O‘tmish merosini tahlil qilish: O‘tgan adabiyot va madaniy merosni to‘plash, tahlil qilish va targ‘ib etishda ham faol bo‘lgan, bu esa millatning madaniyati va tarixiga hurmat ko‘rsatishga yordam berdi. 7. Ustozlik faoliyati: Ko‘plab olimlar va muallimlarga ustozlik qildi, ularning ilm-fan sohasidagi yutuqlarini rag‘batlantirib, yangi avlodni tarbiyalashda yordam berdi. Fitrat o‘z uslubida va g‘oyalarida ma‘rifatning ahamiyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Uning asarlarida xalqni ilm, ma‘rifat va madaniyatga chaqirishi, zamon talablari bilan uyg‘un ravishda fikr yuritishi, uning jadidchilik harakatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. “Munozara” asarida Fitrat ta‘lim va tarbiyaning muhimligini ko‘rsatib, fikr almashish orqali insonlar o‘rtasidagi muloqot va bilim ishlab chiqarish jarayonining ahamiyatini ta‘kidlaydi. “Xind sayyohi qissasi” esa adabiy jihatdan ham, ma‘naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bu asarda Fitrat Sharqning madaniy merosini mukammal anglab yetish va uni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. U zamonaviy hayotda xalqni ma‘rifatli qilish uchun ilg‘or g‘oyalarga asoslangan yangi fikrlarni ilgari suradi Fitratning ilm-fan, o‘qitish va o‘qish sohasidagi qoloqlikni tanqid qilishiga e‘tibor qaratilib, ma‘rifatparvar sifatida zamonaviy ta‘lim tizimini isloh qilish zarurligini ta‘kidlaydi va bu borada bir nechta asosiy sabablarni ko‘rsatadi. Birinchidan, Fitrat maktablarda dunyoviy fanlarning o‘qitilmasligini va diniy aqidalar orqali xalqni ilmga erishishdan mahrum etishni muhim masala deb biladi. U mutaassib ruhoniylarni qoralab, ularning bilim yetishmasligini va xalqni chalg‘itayotganini ta‘kidlaydi. Bu yerda Fitratning “Ilm agar Chinda bo‘lsa ham uni tilab o‘qingiz” kabi hadislariga asoslanishi, ilm olishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, o‘z asarlarida nodir ilmiy asarlarning yo‘qolishi sabablarini tahlil qiladi. U ayrim hukmdorlarning bu asarlarga e‘tibor bermasligi yoki ularni g‘arb sayyohlariga arzon sotilishi oqibatida ilm-fanning rivojlanishini to‘sqinlik qilganini bildiradi. Uchinchidan, Fitrat mustamlakachilik siyosatini ham qoloqlik sabablaridan biri sifatida ko‘radi. U mamlakatdagi ichki nizolar va tabaqalararo hamkorlikning yo‘qligi mustamlakachilikka olib kelganini ta‘kidlaydi. Fitrat milliy qadriyatlar va o‘zlikni anglash masalasini juda muhim deb biladi, shuningdek, yangi maktablar, gazeta va jurnallar kabi ta‘lim va axborot vositalarining millatning o‘zligini anglashida muhim rol o‘ynayotganini ta‘kidlaydi. Chor hukumati esa bu jarayonlarni to‘xtatish yoki cheklashga harakat qilgan, chunki ular milliy uyg‘onish va o‘zlikni anglashni tahdid sifatida ko‘rgan. Fitratning quyidagi fikrida bu holatni ochiq-oydin ko‘rish



mumkin: “Bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o‘ldirmoq tilaga bilan Osturmov kabi mutaassib po‘plarning idorasida gazeta chiqarildi, maktab ochildi, lekin o‘z millatimiz va diyonatimizni onglatmoq uchun o‘z tarafimizdan ochilgan maktablar va gazetalar bog‘landi”¹. Jadidlar o‘zlarining ma‘rifatga chaqiruvchi g‘oyalarini matbuot orqali targ‘ib qilishga ham intiladilar. “Ma‘rifat” shirkatining tashkil etilishi, Buxoro jadidlarining bu boradagi sa‘y-harakatlarini yanada faollashtirdi. Buxoro shahridagi Ibn Sino nomli kitob magazini va kutubxonasi, o‘sha davrda amirlik siyosatiga qarshi bo‘lgan kitoblar uchun muhim bir joy bo‘lib xizmat qildi. Bu yerda nafaqat yashirincha nashr etilgan asarlar sotilgan, balki o‘zbek va tojik ziyolilari uchun bilim manbayi sifatida ham xizmat qildi. 1912-1917 yillar davomida “Ma‘rifat” jamiyati ta‘lim va matbuot sohasida bir qancha muhim ishlarni amalga oshirdi. Darsliklar nashr etish, yangi maktablar ochish kabi faoliyatlari orqali ular xalqni bilimga chanqoq qilishga intildilar. Fitrat, Ayniy, Sharifjon Mahmud va Xakim Buxoriy kabiziyolilar hukumat siyosatiga zid asarlarini Turkiston shaharlari va chet ellarda nashr ettirib, ulardan foydalanishni kengaytirdilar. Matbuot organlari ham jadidlarning ma‘rifat tarqatishdagi asosiy vositalaridan biri bo‘lib xizmat qildi. Fitratning maqolalari “Turon”, “Buxoroyi Sharif”, “Oyna”, “Alanga”, “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida va “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida e‘lon qilinishi orqali ko‘plab insonlarni ma‘rifat yo‘lida harakat qilishga undadi. Fitrat o‘zining teatr san‘ati orqali xalqqa madaniyat va ma‘rifat tarqatishdagi intilishi bilan ham tanilgan shaxsdir. 1914-yilda Buxoroda havaskor teatrchilik ishini yo‘lga qo‘ygan va sahnada faol qatnashib, o‘z rollarini ijro etgan. Teatrdan tushgan pullarni birinchi jahon urushi davrida azob chekkan musulmonlar foydasiga sarflaganligi uning odamiylik va insonparvarlik xislatlarini ko‘rsatadi. Fitrat, shuningdek, teatr truppalari uchun dramalar yozib bergan va “Chin sevish”, “Arslon” kabi asarlarni sahnaga qo‘ygan. 1923-yilda VLanskiyni Buxoroda teatr ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun taklif etishi ham uning madaniyatga bo‘lgan qiziqishini va ulkan xizmatlarini ko‘rsatadi. 1918-yilning aprelida Toshkentga kelgan Fitrat o‘qituvchilik faoliyatini boshladi va bu yerda “Chig‘atoy gurungi”ni tashkil etdi. U jamiyatda madaniy merosimizni o‘rganish va avlodlarni ajdodlarning ruhiyati bilan bog‘lashda muhim rol o‘ynagan⁵.

Xulosa

⁵ <https://scientific-jl.com/tad/article/view/2878/2763>



Turkiy xalqlarning, xususan o‘zbek xalqining yozuvini lotinlashtirish g‘oyasi ilk bor 1921 yilda Toshkentda o‘tkazilgan O‘zbek tili va uning imlosiga bag‘ishlangan qurultoyda ilgari surilgan bo‘lsa-da, dastlab keng tarqalib ketmagan. Arab grafikasi asosidagi yozuvni saqlab qolish va uni soddalashtirish lozimligi haqida Abdurauf Fitrat tomonidan bildirilgan fikrlar turli munozaralarga sabab bo‘lgan. Ammo vaqt o‘tishi bilan Fitrat va uning hamfikrlari lotin yozuviga o‘tishni faol targ‘ib qildilar va bu yo‘lda katta kurash olib borib, lotin yozuvining joriy etilishida muhim rol o‘ynadilar. 1922 yil oxirlarida Turkiston ASSRda imlo islohoti masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etib, arab yozuvini yengillashtirish va isloh qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilindi. Bugungi kunda o‘zbek jamiyatida yoshlarning tarbiyasini zamonaviy ilmiy va texnologik asoslarda tashkil etish katta ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonida asosiy kompetensiyalar va fazilatlarni shakllantirish uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy va oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar o‘quv yurtlari hamda mahallalar o‘rtasida uzviy hamkorlik lozim. Ayniqsa, oila jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy poydevori sifatida, avlodlarning uzluksizligini ta’minlovchi muqaddas makon hisoblanadi. Oila nafaqat qadimiy urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazadi, balki yoshlarning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Jadid adiblari va mutafakkirlari, jumladan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat oila tarbiyasining jamiyat hayotidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilganlar. Xususan, Fitratning 1915 yilda chop etilgan «Oila» asari sharq va g‘arb olimlarining tadqiqotlari bilan boyitilgan, oila tarbiyasiga doir mukammal yo‘riqnoma sifatida tarixiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Ushbu asar o‘sha davr Turkistonining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-axloqiy holatini oila masalalari orqali yoritib beradi.

Tarixan oila tarbiyasida kattalarni hurmat qilish, o‘zaro yordam va kelajak avlodga g‘amxo‘rlik qilish kabi qadriyatlar asosiy o‘rin tutgan. Buyuk olimlar, jumladan Abu Ali ibn Sino ham bola tarbiyasining asosiy manbai sifatida oilani ta’kidlaganlar. Sababi, oilada berilgan tarbiya bolalarning qalbiga chuqur singib, ularning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, oila nafaqat shaxsiy baxt va farovonlik manbai, balki jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining poydevori bo‘lib qoladi. Bu esa oilaga bo‘lgan e’tibor va tarbiyaviy yondashuvlarni doimiy ravishda yangilab, zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishni talab qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир: М. Жўраев. –Тошкент: “Шарқ”, 2000. –Б. 391
2. Поливанов Е.Д. О принципах построения тюркской грамматики (Тезисы доклада на заседании педагогической комиссии Научного Совета // «Наука и просвещение», 1922. № 1.
3. –С. 12.
4. Абдурауф Фитрат. “Оила”. -Тошкент, 2000. - Б.6-7.
5. <https://scientific-jl.com/tad/article/view/2878/2763>
6. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/download/9533/8704/9565&ved=2ahUKEwjsov3thcSNAxUZLBAIHdt3FT8QFnoECCEQAQ&sqi=2&usg=AOvVaw31QCvoziuTM9we7fqLfJd5>

Research Science and
Innovation House

